


**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ**

2023 №3/1

2011 йилдан чиқа бошлаган

# TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI



## ВЕСТИК ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент



ISSN 2181-7812



Выпуск набран и сверстан на компьютерном  
издательском комплексе

редакционно-издательского отдела  
Ташкентской медицинской академии

Начальник отдела: М. Н. Аслонов

Редактор русского текста: О.А. Козлова

Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева

Редактор английского текста: А.Х. Жураев

Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева

Учредитель: Ташкентская медицинская академия

Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском  
управлении печати и информации

Регистрационное свидетельство 02-00128

Журнал внесен в список, утвержденный приказом №  
201/3 от 30 декабря 2013года

реестром ВАК в раздел медицинских наук

Рукописи, оформленные в соответствии  
с прилагаемыми правилами, просим направлять  
по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2,

Главный учебный корпус ТМА,

4-й этаж, комната 444.

Контактный телефон: 214 90 64

e-mail: rio-tma@mail.ru

rio@tma.uz

Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.

Гарнитура «Cambria».

Тираж 150.

Цена договорная.

Отпечатано на ризографе  
редакционно-издательского отдела ТМА.  
100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.

Вестник ТМА № 3/1, 2023

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ**

**Главный редактор**

проф. А.К. Шадманов

**Заместитель главного редактора**

проф. О.Р.Тешаев

**Ответственный секретарь**

проф. Ф.Х.Иноятова

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ**

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

проф. Жае Вук Чои (Корея)

акад. Каримов Ш.И.

проф. Татьяна Силина (Украина)

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Людмила Зуева (Россия)

проф. Метин Онерчи (Турция) проф.

Ми Юн (Корея)

акад. Назыров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

проф. Саломова Ф.И.

проф. Саша Трескач (Германия)

проф. Шайхова Г.И.

**Члены редакционного совета**

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент) проф.

Хамдамов Б.З. (Бухара) проф.

Ирискулов Б.У. (Ташкент) проф.

Каримов М.Ш. (Ташкент) проф.

Маматкулов Б.М. (Ташкент) проф.

Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент)

проф. Хамраев А.А. (Ташкент) проф.

Холматова Б.Т. (Ташкент) проф.

Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

Ахмедова М.Д., Солиженов Ш.Э., Ташпулатова Ш.А., Атаходжиева А.М. <b>СУВЧЕЧАКНИ БОЛАЛАР ВА КАТТАЛАРДА КЕЧИШИ</b>	Axmedova M.D., Solijonov Sh.E., Toshpulatova Sh.A., Atahodjieva A.M. CHICKENPOX IN CHILDREN AND ADULTS	47
Ахмедова М.Д., Зайлобидинов Б.З., Таджева Н.У., Анваров Ж.А., Бобоев Sh.J. BRUTSELLYOZNING О'ТКИР ВА О'ТКИР ОСТИ ШАКЛЛАРИНИНГ ЭТИОЛОГИК ТАШХИСОТИДА ПЗР МЕТОДИНИ QO'LLASH NATIJALARI	Axmedova M.D., Zaylobidinov B.Z., Tadjieva N.U., Anvarov J.A., Bobojonov Sh.J. THE RESULTS OF USING THE PCR METHOD IN THE ETIOLOGICAL DIAGNOSIS OF ACUTE AND SUBACUTE FORMS OF BRUCELLOSIS	51
Байжанов А.К., Хикматуллаева А.С., Ачишова М.М. <b>ЛЯМБЛИОЗ ВА БЛАСТОЦИСТОЗ АНИКЛАНГАН БЕМОРЛАРДА ОИВ ИНФЕКЦИЯСИНИНГ КЕЧИШИ</b>	Bayjanov A.K., Khikmatullaeva A.S., Achilova M.M. COURSE OF HIV INFECTION IN PATIENTS WITH GIAMBLIASIS AND BLASTOCYSTOSIS	59
Бокова Т.А., Карташова Д.А., Бевз А.С., Шишиллина Е.Е. СОСТОЯНИЕ ВЕГЕТАТИВНОЙ РЕГУЛЯЦИИ У ДЕТЕЙ С МЕТАБОЛИЧЕСКИМ СИНДРОМОМ	Bokova T.A., Kartashova D.A., Bevz A.S., Shishulina E.E. THE STATE OF AUTONOMIC REGULATION IN CHILDREN WITH METABOLIC SYNDROME	63
Бригидя К.С., Рахимова В. Ш., Казакова Е.И. <b>КЛИНИЧЕСКИЙ И ВИРУСОЛОГИЧЕСКИЙ НЕУСПЕХ АРВТ И ЕГО ВЗАИМОСВЯЗЬ С ЛЕКАРСТВЕННОЙ УСТОЙЧИВОСТЬЮ ВИЧ</b>	Brigida K.S., Rakimova V.Sh., Kazakova E.I. CLINICAL AND VIROLOGICAL ART FAILURE AND ITS RELATIONSHIP WITH HIV DRUG RESISTANCE	68
Ганиев А.Г., Назаров К.Д. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВКЛЮЧЕНИЯ ГАЛАВИТА В КОМПЛЕКСНУЮ ТЕРАПИЮ ОСТРОЙ ПНЕВМОНИИ, ВЫЗВАННОЙ ГРАМОТРИЦАТЕЛЬНЫМИ БАКТЕРИЯМИ	Ganiev A.G., Nazarov K.D. EFFECTIVENESS OF INCLUDING GALAVIT IN THE COMPLEX THERAPY OF ACUTE PNEUMONIA CAUSED BY GRAM-NEGATIVE BACTERIA	71
Даминова М.Н., Абдуллаева О.И., Даминова К.М., Мирисмаилов М.М., Халикова Ш.А., Абдукадирова Ш.А., Алимов М.М. <b>ГИМЕНОЛЕПИДОЗ: КЛИНИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ПРИНЦИПЫ ТЕРАПИИ</b>	Daminova M.N., Abdullaeva O.I., Daminova K.M., Mirismailov M.M., Khalikova Sh.A., Abdukadirova Sh.A., Alimov M.M. HYMENOLEPIDOSIS: CLINICAL SIGNIFICANCE AND PRINCIPLES THERAPY	75
Джураева К.С., Ниязова Т.А., Марупова М.Д., Рашидов Ф.А. КЛИНИЧЕСКОЕ ТЕЧЕНИЕ БРУЦЕЛЛЕЗА В ЭНДЕМИЧЕСКОМ ОЧАГЕ У ЖЕНЩИН ФЕРТИЛЬНОГО ВОЗРАСТА	Djuraeva K.S., Niyazova T.A., Marupova M.D., Rashidov F.A. CLINICAL COURSE OF BRUCELLOSIS IN THE ENDEMIC FOCUS IN WOMEN OF FERTILE AGE	79
Жанибеков Ж.Ж., Чухляев П.В., Мирзажонова Д.Б., Гарбузов А.А., Хавкина Д.А., Ружентсова Т.А. ДИАРЕЙНЫЙ СИНДРОМ ПРИ COVID-19: ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫЙ ПОДХОД К ТЕРАПИИ	Zhanibekov Zh.Zh., Chukhlyev P.V., Mirzazhonova D.B., Garbuзов A.A., Khavkina D.A., Ruzhentsova T.A. DIARRHEAL SYNDROME IN COVID-19: A DIFFERENTIATED APPROACH TO THERAPY	83
Карпухина О.А., Арова А.А., Крамарь Л.В. <b>КЛИНИЧЕСКИЙ СЛУЧАЙ ТЯЖЕЛОГО ТЕЧЕНИЯ ВИРУСНО-БАКТЕРИАЛЬНОЙ ПНЕВМОНИИ, ОСЛОЖНИВШЕЙСЯ РАЗВИТИЕМ ИТШ, У РЕБЕНКА 1 МЕСЯЦА</b>	Karpukhina O.A., Arova A.A., Kramar L.V. A CLINICAL CASE OF A SEVERE COURSE OF VIRAL-BACTERIAL PNEUMONIA COMPLICATED BY THE DEVELOPMENT OF INFECTIOUS-TOXIC SHOCK IN A CHILD AGED 1 MONTH	87
Кистенева Л.Б., Якушина С.А., Бондарева Л.Н. <b>ЛАБОРАТОРНАЯ ДИАГНОСТИКА ЦИТОМЕГАЛОВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ У БЕРЕМЕННЫХ И НОВОРОЖДЕННЫХ</b>	Kisteneva L.B., Yakushina S.A., Bondareva L.N. LABORATORY DIAGNOSTICS OF CYTOMEGALOVIRUS INFECTION IN PREGNANT WOMEN AND NEWBORNS	90
Курбатова О.В., Купцова Д.Г., Закиров Р.Ш., Радыгина Т.В., Мовсисян Г.Б., Фрейдлин Е.В., Семикина Е.Л., Потапов А.С., Мурашкин Н.Н., Петричук С.В. ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗУЧЕНИЯ ИММУНОМЕТАБОЛИЗМА В КЛИНИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ	Kurbatova O.V., Kuptsova D.G., Zakirov R.SH., Radygina T.V., Movsisyan G.B., Freidlina E.V., Semikina E.L., Potapov A.S., Murashkin N.N., Petrichuk S.V. PROSPECTS FOR THE STUDY OF IMMUNOMETABOLISM IN CLINICAL PRACTICE	95

## BRUTSELLYOZNING O'TKIR VA O'TKIR OSTI SHAKLLARINING ETIOLOGIK TASHXISOTIDA PZR METODINI QO'LLASH NATIJALARI

Axmedova M.D., Tadjieva N.U., Zaylobidinov B.Z., Anvarov J.A., Bobojonov Sh.J.

### РЕЗУЛЬТАТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЦР МЕТОДА В ЭТИОЛОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКЕ ОСТРЫХ И ПОДОСТРЫХ ФОРМ БРУЦЕЛЛЕЗА

Ахмедова М.Д., Таджиева Н.У., Зайлобидинов Б.З., Анваров Ж.А., Бобожонов Ш.Ж.

### THE RESULTS OF USING THE PCR METHOD IN THE ETIOLOGICAL DIAGNOSIS OF ACUTE AND SUBACUTE FORMS OF BRUCELLOSIS

Axmedova M.D., Tadjieva N.U., Zaylobidinov B.Z., Anvarov J.A., Bobojonov Sh.J.

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi. Toshkent, O'zbekiston*

*Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.*

**Аннотация.** Несмотря на то, что бруцеллез был открыт и изучен почти 1,5 века назад, в мировом сообществе он до сих пор считается большой проблемой. Наличие возбудителя у домашних животных позволяет заболеванию широко распространяться. В развивающихся странах уровень медицинского образования населения невысок, а потребление сырых продуктов является причиной роста заболеваний и осложнений у населения [13]. Целью данного исследования является обнаружение сегмента IS711 генома *Brucella spp.* в образцах крови с использованием широко применяемого в настоящее время метода ПЦР в реальном времени, что позволяет улучшить раннее выявление и диагностику заболевания, определить наличие возбудителя у больных до и после стационарного лечения, оценить эффективность применяемых лечебных мероприятий. Для этого в клинике РСНПМЦЭМИПЗ за 2020-2021 годы обследован 61 больной с диагнозом острый (31) и подострый (30) бруцеллез. Диагноз устанавливался на основании результатов серологических реакций. Совпадение PCR RealTime было обнаружено в 88,5% случаев. У 11,5% больных ДНК возбудителя в крови не обнаружена.

**Annotation.** Despite the fact that brucellosis was discovered and studied almost 1.5 centuries ago, it is still considered a big problem in the world community. The presence of the pathogen in domestic animals allows the disease to spread widely. In developing countries, the level of medical education of the population is low, and the consumption of raw foods is the cause of an increase in diseases and complications in the population [13]. The aim of this study is to detect the IS711 segment of the genome of *Brucella spp.* in blood samples using the currently widely used real-time PCR method, which improves the early detection and diagnosis of the disease, determines the presence of the pathogen in patients before and after inpatient treatment, and evaluates the effectiveness of the applied therapeutic measures. For this purpose, 61 patients with a diagnosis of acute (31) and subacute (30) brucellosis were examined at the RSSPCoFEMIAPD clinic for 2020-2021. The diagnosis was established on the basis of the results of serological tests. A PCR RealTime match was found in 88.5% of cases. In 11.5% of patients, DNA of the pathogen was not found in the blood.

**D**olzarbli. Brutsellyoz – bakterial tabiiy o'choqlarga ega, asosan tayanch xarakat tizimi, nerv va jinsiy sistemalarning zararlanishi bilan kechadigan, retsidivlanishga moyil zoonoz kasallik bo'lib xali xanuz global muammoligicha qolmoqda. Brutsellyoz asosan rivojlanib borayotgan va qoloq mamlakatlarda ko'p tarqalgan bo'lsada rivojlangan davlatlarda ham uchrab turadi. Kasallikning rezervuarlari qoramol, qo'y, echki, cho'chqa, tuyalar hamda itlar xisoblanadi [6, 8, 12].

Kasallanish asosan kasallangan xayvon maxsulotlari etarli darajada termik qayta ishlamay iste'mol qilishdan yuzaga keladi. Ko'p xollarda zararlangan sut va sut maxsulotlari, brutsella saqlovchi go'sht va go'shtdan tayyorlangan maxsulotlarni istemol qilish, xayvon

chiqindilari (terisi, qog'onoq suvlari) bilan ochiq kontaktidan keyin odamlarda kasallanish kuzatiladi [8, 11].

Asoratlanmagan brutsellyozni davolashda doksisiklin (6 xafta) + streptomitsin (2-3 xafta) yoki rifampitsin (6 xafta) + doksisiklin (6 xafta) kombinitsiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Agar asoratlar yuzaga kelgan bo'lsa doksisiklin + streptomitsin + rifampitsin, doksisiklin + rifampitsin + amikotsin, doksisiklin + streptomitsin + sulfametaksozol kombinitsiyalari 3 oy va undan uzoq muddatlarda berilishi samarali xisoblanadi [8, 9, 11].

Bugungi kunda genomni yoki genni aniqlash uchun yuqori aniqlikka ega bo'lgan polimerazali zanjir reaksiya (PZR) usulidan foydalaniladi. Shu qatorda brutselning spetsifik genlarini aniqlashda xam ushbu metod

yuqori samaradorlikka ega va zamonaviy tibbiyotda keng qo'llanilmoqda. Shuni aytish joizki bu metod yordamida davolash samarasini xar vaqtida nazorat qilib turish mumkin.

Oxirgi yillarda brutsellyoz kasalligining klinikasi birmuncha o'zgargan. Oxirgi 20-30 yil mobaynida kasallik kechishi biroz engillashgan, surunkali formaga o'tishga moyillik oshib bormoqda. Kasallikning atipik kechishi, bolalarda va kattalarda klinikaning boshqa ko'plab kasalliklarga o'xshashligi, brutsellyozning aniq (kardinal) simptomatikasi yo'qligi, kasallik qancha uzoq kechaversa belgilarning boshqa surunkali kasalliklar belgilari bilan mimikriyasining ortishi xisobiga shifokorlarni chalg'itadi, kasallikning diagnostikasida qiyinchilik tug'diradi, erta diagnostikaning kamayishiga hamda kech diagnostika qilinishi natijasida asoratlarning ko'payishiga olib keladi. Kasallikning klinik namoyon bo'lishi, paydo bo'lgan xolatlarning patogenezini aniqlash diagnostikani engillashtirib qolmay davolashni ham optimizatsiya qilishga, kasallik asoratlarini oldini olishga, kasallik kechishini boshqarishda, davolashning samaradorligini baxolashda katta yordam beradi [8, 9, 10, 12].

**Maqsad.** Brutsellyozning o'tkir va o'tkir osti shaklarining etiologik tashxisotida PZR metodini natijalarini o'rGANISH.

**Material va usullar.** Ushbu prospektiv tadqiqotda 2020-2022-yillarda RIEMYKIAMT klinikasida o'tkir va o'tkir osti brutsellyoz tashxisi bilan statsionar davolangan bemorlar tekshirildi. Bemorlar kuzatuvi ularning klinikaga birinchi murojaati vaqtidan boshlanib to'ularning bo'limdan chiqarilishigacha davom etdi. Bemorlar xaqida malumotlar quyidagi yo'llar bilan yig'ildi: murojaat vaqtida ko'rik, interv'yu usulida so'rovnama, prospektiv bemor nazorati, umumklinik laborator tekshiruvlar, instrumental tekshiruv, serologik taxlillar, bemorlardan kelganida va statsionar davodan keyingi olingan qonlarining PZR-RealTime tekshirushi. Xar bir bemordan tadqiqotda ishtirot etish uchun rozilik olindi. Tadqiqotga bolalar jalg etilmadi.

Murojaat vaqtida bemorning pasport ma'lumotlari (F.I.O., yoshi, jinsi, turar joyi), kasbi, shikoyatlari, xayot va kasallik anamnezi to'plandi. Birlamchi obyektiv ko'rik natijalari olindi. Bemordan dastlabki qon namunalari olinib Xeddelson-Rayt serologik reaksiyalari va *Brucella spp.* ga nisbatan PZR-Real Time reaksiyasi qo'yildi.

Bemor statsionarda davolanishni boshlagan ilk kunlarda ular bilan suxbat olib borilib interv'yu usulida quyidagi savolarga javoblar to'plandi: o'tkazgan kasalliklari, kasallikning dastlab boshlangan vaqt, qanday uy xayvonlari parvarishlaydi (yo'q/mol/qo'y/echki/ot/cho'chqa/aralash), xom sut maxsulotlari iste'mol qiladimi (ha/yo'q), xom go'sht maxsulotlari iste'mol qiladimi (ha/yo'q), uy xayvonlari emlanganmi (ha/yo'q), uy xayvonlarida bola tashlash kuzatilganmi (ha/yo'q), xayvonlarini tug'dirishda ishtirot etganmi (ha/yo'q), oila a'zolarida ushbu kasallik

aniqlanganmi (ha/yo'q), statsionargacha davolanganmi (ha/yo'q), necha kun davomida davolangan.

Statsionar davo davrida bemorlarning kundalik shikoyatlari qayd etilib borildi. Bemorlarda umumiyo qon, peshob, najas taxlillari, serologik Xeddelson-Rayt reaksiyalari murojaat paytida, davolanish boshlangach 10-12 kun o'tib va statsionar davo tugagach tekshirildi. Xar bir bemorga davolanish davrida bir marta UTT tekshiruvi o'tkazildi.

PZR-Real Time reaksiyasi davogacha va davodan keyin qo'yildi. Qon namunalaridan DNKnaj ajratib olish uchun C-8896 ekstraksiya nabori ishlatildi. *Brucella spp.* da uchrovchi DNKnishoni sifatida IS711 segmenti tanlandi va deteksiya uchun V-5470 nabori qo'llanildi. BIO-RAD apparatida amplifikatsiya jarayoni o'tqazildi.

C-8896 to'plamining nuklein kislotalarni (NK) ajratuvchi tarkibiga 8 flakon 4 ml.li lizislovchi, 4 flakon 12 ml.li NK cho'ktiruvchi, 4 flakon 8 ml.li №1 yuvuchi, 4 flakon 5ml.li №2 yuvuchi, 12 flakon 3 ml.li elyuatsiyalovchi eritmalar va 1 flakon 1 ml.li sorbent (magnit zarachali suspenziya) kiradi. To'plamining nazorat tarkibi esa nazorat namunalarini tiklovchi (NNT) (2 flakon 4 ml.li), manfiy nazorat namunasi (MNN) (2 flakon 2 ml.li), ichki nazorat namunasi (INN) (2 flakon liofillangan). Xar bir C-8896 to'plamida qo'shimcha 2 tadan plastik qopqoqlar bo'ladi.

V-5470 to'plami ijobjiy nazorat namunasi (INN) (1 probirk 1ml.li), MNN (1 probirk 1 ml.li), PZR uchun tayyor liofizirlangan reaksiyon aralashma (TRA) (48 probirk) xamda optic plyonkadan iborat.

Nuklein kislotalarni ajratib olish uchun 63 ta probirk raqamlanib tartib bilan olindi. 61 ta probirkaning xar biriga 30 mkl dan INN solindi va manfiy nazorat probirkasiga MNN dan 100 mkl solindi. Tekshirilayotgan namunadan 100 mkl qolgan probirkalarga solindi (qon 50mkl solinadi, sezgirlikni oshirish uchun namunalar 200 mkl dan solinishi mumkin). Biz qon zardobini sentrifugada ajratib organimiz uchun 100 mkl zardobdan foydalandik. Keying bosqichda esa probirkalarga 300 mkl sorbentli lizislovchi eritma solindi. Tayyor aralashmani vorteksda 10-15 sekund chayqatilib, termosheykerda 10 minut davomida 65 C da ushlab turdi. 400 mkl NK cho'ktiruvchi eritmada xar bir probirkaga solib 10-15 sekund vorteksda chayqatib 1300 ay/min tezlikda 23 C da sentrifuga qilib oldik.

Probirkalarni magnitli shtativlarga joylab cho'kma yuzasidagi suyuqlikni tortib otsos yordamida tortib oldik. Keyin esa yuvuchi eritmalar bilan (500 mkl №1 yuvuchi eritma solinadi va vorteksda xamda sentrifugada yuqoridagidek ishlanadi. 300 mkl №2 yuvuchi eritma solinadi va yuqoridagi amallar qaytariladi.) probirkadagi cho'kmani yuvib oldik. Qoldiqni quritish uchun probirkalarni xona xaroratida (23 C) 2 daqiqa usti ochiq xolatda qoldirdik. Barcha probirkalarga elyuirllovchi eritma solish orqali nuklein kislotalarni ajratib olish jarayonini tugatdik.

Qo'zg'atuvchi DNKnini amplifikatsiya qilish uchun tayyor ajratib olingan va elyuirlangan NK aralashma-

sini TRA saqlagan probirkalarga tartib raqam bilan 50 mkl miqdorda solib chiqdik (jami nazorat probirkalari bn 65ta). Amplifikatorga kerakli (qo'zg'atuvchi) DNK ni va INN DNK sini aniqlashga mo'lljallangan buyruqlarni kiritib amplifikatsiya jarayonini programmalaashtirildi (1-bosqich - 50 C 2 minut, 2-bosqich - 95 C 2 minut, 3-bosqich - 50 sikl (94 C 10 sekund va 60 C 20 sekund) jarayoni). DNK deteksiyasi (Fluoressensiyani o'lchash) 60 C da amalga oshadi. Kerakli detektion kanallarni belgilab chiqildi (FAM - INN DNK sini aniqlash uchun, ROX - qo'zg'atuvchi DNK sini aniqlash uchun). Programmaga probirkalarning joylashish tartibini kiritib kopmyuter yordamida programmani ishga tushirdik. Reaksiya natijasini Excel dasturida yaratilgan jadval ko'rinishida oldik va uni qo'llanmaga asosan interpretatsiya qildik.

To'plangan ma'lumotlar Excel dasturiga kiritildi va statistik taxlildan o'tqazildi.

**NATİJALAR.** Kasallanish xolatlari asosan erkaklarda kuzatilib 69% (n=42) ni tashkil qildi. Ayollar xissasiga 31% (n=19) to'g'ri keldi. Asosiy kasallanish xolatlari aholining ishga layoqatli qismida uchradi. Bemrolarning o'rtacha yoshi  $37.4 \pm 14.2$  bo'lib, 18 yoshdan to 66 yoshgacha, yoshlar (18-44yosh) - 74% (n=45), o'rtacha yoshdagilar (45-59 yosh) - 13% (n=8), keksa yoshdagilar (60-74 yosh) - 13% (n=8) ni tashkil etdi. Bemrolarning 93.4% (n=57) qismi qishloq aholisi bo'lib, qolgan 6.6% (n=4) qismi shaxarda istiqomat qiladi. Kasallik bilan kasallanganlarning asosiy qismi ishsizlar, uy bekalari, nafaqadagilar va fermerlar bo'ldi. Mos ravishda 36% (n=22), 18% (n=11), 11% (n=7), 11% (n=7). Bemrolarning 36% (n=22) ining oila a'zolarida ushbu kasallik bilan kasallanish xolatlari kuzatilgan (Jadval №1).

#### 1-jadval.

#### Brutsellyoz bilan kasallangan bemorlarning demografik ko'rsatkichlari taqsimoti

Yoshiga nisbatan	18-44 yosh 45-59 yosh 60-74 yosh	45 8 8	74% 13% 13%
Jinsiga nisbatan	Erkak Ayol	42 19	69% 31%
Yashash joyi bo'yicha	Shaxar aholisi Qishloq aholisi	4 57	93.4% 6.6%
Kasbi bo'yicha	Ishsiz Uy Bekasi Fermer Nafaqaxo'r Yollanma ishchi O'qucvhi/talaba Laborant/veterinar Boshqalar	22 11 7 7 5 4 2 3	36% 18% 11% 11% 8% 7% 3% 5%
Oilaviy anamnezi bo'yicha	Uchragan Uchramagan	22 39	36% 64%

Bemrolarning asosiy qismi Toshkent, Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo viloyatlari xissasiga to'g'ri keldi (n=22, 14, 13, 6). Shaxar aholisining 3 (75%) tasi Toshkent shaxridan bo'lsa, 1 (25%) tasi Samarqand shaxridan.

Kasallikning dastlabki belgilari paydo bo'lganidan to diagnoz qo'yilgunicha bo'lgan interval 2 oydan kam 50.8% (n=31) va 2-6 oy 49.2% (n=30) ni tashkil qildi. RIEMYPKIATM klinikasigacha bemorlarning 62.3% (n=38) qismi antibacterial terapiya olgan. Klinikagacha bo'lgan davrda asosan oilaviy poliklinikalarda davolnishgan bo'lib davo davomiyligi  $9 \pm 3.1$  kunni tashkil etdi. Fermerlar va oila a'zolarida brutsellyoz aniqlangan bemorlarning katta qismi 37.7% (n=23) tibbiy yordam uchun klinikaga to'g'ridan to'g'ri murojaat etish-

gan. Tadqiqotda ishtirok etgan bemorlarning 100% ida kasallik birinchi marta aniqlangan.

So'rovnomada natijalariga asoslangan xolatda 82% (n=50) bemorlar chorva parvarishi bilan shug'ullanib, 52.5% (n=32) qismi aralash chorva boqishadi. Chorva tarkibi asosan qoramol, qo'y, echkilardan tashkil topgan. Chorva mollarini emlashdan 67.2% (n=41) qismi o'tkazgan. Chorvachilik bilan shug'illanuvchi bemorlarning 15 nafari (24.6%) uy xayvonlarida bola tashlash kuzatilganini aytishgan. 19 (31.1%) nafar bemor esa chorva mollarining tug'ish jarayonida qatnashgan. Pasterizatsiyalanmagan sutni yaxshi ko'ruchilar 60.6% (n=37) ni tashkil etgan bo'lsa, 45.9% (n=28) xom go'sht maxsulotlarini iste'mol qilishni xush ko'rishini ko'rsatishdi (Jadval №2).

**2-jadval.****Brutsellyoz kasalligi bilan kasallanish xavf omillarining bemorlar o'rtaida uchrash darajasi**

Uy xayvonlari tarkibi	Qoramol Qo'y Echki Ot Aralash Yo'q	11 7 - - 32 11	18% 11.5% - - 52.5% 18%
Uy xayvonlarining emlanganligi	Emlangan Emlanmagan	41 9	67.2% 14.7%
Yuqish xavfi mavjud xolatlar	Bola tashlash Tug'dirish Xom sut iste'moli Xom go'sht iste'moli	15 19 37 28	24.6% 31.1% 60.6% 45.9%

Bemorlardan shifoxonaga kelganda, davoning 10-12 kunlarida xamda shifoxonadan chiqish davrida umumiy qon, peshob, najas taxlillari olindi. Umumiy qon taxlilida ko'rinarli o'zgarish aniqlanmadи. Umumiy peshob taxlilida shifoxonaga murojaatgacha mavjud bo'lgan, bemorlarni bezovta qilmagan yallig'lanish jaryonlarining antibacterial davo ta'sirida kamayishi kuzatildi. Bu jarayon peshobda leykotsitlar chiqishining


kamayishi va bemorlar peshobida bakteriyalarning topilmasligi bilan ifodalandi. Umumiy najas taxlilida bemorlarning 4.9% (n=3) ida lyamblioz aniqlandi. Shifoxonadan chiqish davrida 96.7% (n=59) bemorlar najasida zamburug'lar aniqlandi. Ushbu ko'rsatkich shifoxonaga ilk murojaat paytida 41% (n=25)ni tashkil etgan(Jadval №3).

**Jadval №3****Umumiy qon, peshob, najas taxlillari natijalari**

Ko'rsatkichlar	Davogacha	Davolanish davrida	Davodan keyin
<b>Umumiy qon taxlili</b>			
Gemoglobin	123±13.1	122±18.5	124±11.1
Eritrotsit	4,6±0.6	4,6±0.3	4,6±0.3
Leykotsit	5,8±2.2	5,9±1.5	5,8±1.2
Trombotsit	235±76.6	258±55.1	275±52.9
ECHT	8,5±1.9	10,1±1.7	9,0±1.5
<b>Umumiy peshob taxlili</b>			
Oqsil	0,041± 0,017 (n=4/6,5%)	0,066 (n=1/1,6%)	0
Epiteliy	1,9±1.6	1,8±0.8	1,9±0.9
Eritrosit	0,7±1.1	0,8±2.0	0,2±0.5
Leykotsit	3,4±2.4	2,9±1.4	1,5±1.3
Bakteriya	n=20 (32,8%)	n=17 (27,9%)	n=3 (5%)
Tuzlar	n=14 (23%)	n=9 (14,7%)	n=5 (8,2%)
<b>Umumiy najas taxlili</b>			
Leykotsitlar	8.4±3.6 (n=26/42.6%)	3.8±2.1 (n=31/50.8%)	2.6±1.0 (n=20/32.8%)
Gija tuxumlari	n=3/4.9%	n=3/4.9%	n=3/4.9%
Zamburug'lar	n=25/41%	n=35/57.3%	n=59/96.7%

Bemorlar shifoxonaga kelgan paytida Xeddelson serologic reaksiysi 8.2% ( $n=5$ ) xolatda ijobiy (+++) natija bergen bo'lsa qolgan 91.8% ( $n=56$ ) xolatda o'ta ijobiy (\*\*\*\*) ekanini ko'rsatdi. Ushbu ko'rsatkich statsio-


nar davo davrida va shifoxonadan chiqishda barcha xolatda xam o'ta ijobiy (\*\*\*\*) natijani berdi. Rayt reaksiysi natijalari quyidagicha (Rasm№1):



*Rasm№1. Rayta reaksiya natijalari*

Markazga keldi bermillardan olingan qon namunalari Brucella spp. DNK siga tekshirilganda 88.5% bemorda DNK aniqlandi. 11.5% bermillarda genom segmentlari topilmadi. Ushbu bermorlar uy sharoitida


15 kundan kam bo'limgan antibacterial terapiya olish-gani ma'lum bo'ldi. Ketayotgan bermollarning 31.1% qismida DNK mavjudligi aniqlandi (Rasm№3).



*Rasm№2. PZR-RealTime natijalari*

Bemorlar RIEMYPKIATM 4-bo'limida davolanishdi. Davolash sxemasi O'zbekiston Respublikasi SSV ning 2018-yilgi qo'llanmasi asosida olib borildi. Statsionar davo 21-kunni tashkil etdi, bemorlar yana 21 kun davomida ambulator sharoitda yashash joylarida etiot-

rop (antebakterial) davoni davom ettirdilar. Bemorlarning shikoyatlari xisobga olinib simptomatik davo choralarini ko'rildi. Rasm №3 da davolash sxemalari keltirilgan:



*Rasm №3. Antibakterial davo sxemalari*

Quyidagi jadvalda davolash sxemalari va shu sxema bo'yicha statsionar davodan keyingi PZR-RealTime natijalari keltirilgan:

Sxemalar	Umumiy		O'tkir b-z		O'tkir osti b-z	
	Musbati	Manfiy	Musbati	Manfiy	Musbati	Manfiy
S + R	11	32	6	14	5	18
S + D	3	3	1	3	2	0
S + R + L	2	1	2	1	0	0
R + D	1	2	1	0	0	2
R + L	2	1	1	0	1	1
L + S	0	2	0	1	0	1
S + R	0	1	0	1	0	0
<b>Jami</b>	<b>19</b>	<b>42</b>	<b>11</b>	<b>20</b>	<b>8</b>	<b>22</b>

Jadval №4 Statsionar davodan keyingi PZR-RealTime natijalari: davolash sxemalari va diagnozi bo'yicha taqsimlangan.

**Muhokama.** Ushbu tadqiqotda brutsellyoz kasallining xavf omillari, o'tkir va o'tkir osti brutsellyozning klinik va laborator xususiyatlari, klinik kechishi, diagnostikada PZR-RealTime metodinini qo'llash xamda qo'llanilayotgan davo choralarining samaradorligi o'rganildi.

Olingen ma'lumotlarga asosan bemorlarning katta qismini 18-44 yoshdagi erkaklar tashkil qildi. Kasallanganlarning asosiy qismida muqim ishi mavjud emasligi aniqlandi (ishsizlar, uy bekalari, nafaqadagilar). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki doimiy daromad manbai bo'limgan va uyda ko'p vaqt o'tkazadigan shaxslar orasida kasallanish xavfi yuqori bo'lib, bunga sabab uy sharoitida chorvachilik bilan shug'ullanish va qoramollar bilan ximoyasiz ishlash xisoblanadi. Boshqa tomondan qaralganda kasallikning keng tarqalishida xom maxsulotlarning iste'moli katta o'rinn egallaydi. Ayni sabab tufayli erkaklar o'ttasida bemorlarning ko'pligi anglashiladi [1, 2, 3, 5, 6].

Qishloq sharoitida yashovchilarda kasallanish xavfi juda yuqori. Bunga sabab ko'p oilalarning daromadi chorvachilikdan ekani, qoramollarni emlash to'liq yo'lda qo'yilmagani, aholi o'ttasida kasallik yuqish yo'llari xaqida ma'lumot etarli emasligi, xom sut maxsulotlari iste'mol qilishning odat ekanidir [1, 2]. Tadqiqotda qatnashgan bemorlarning katta qismi Toshkent viloyatidan ekaniga chetdan O'zbekistonga olib kiriluvchi qoramollar xam sabab bo'lsa ajab emas. Shaxar sharoitida oziq ovqat orqali kasallikni yuqtirib olish nisbatan kam uchraydi va ayrim xollarda kasb kassalli (fermer, veterinary, laborant) sifatida namoyon bo'ladi.

Bemorlarni kuzatish davomida ularning asosiy shikoyati sifatida tana xaroratining ortishi, xolsizlik, ish-taxaning yo'qolishi, terlash, qaltirash, qo'l va oyoqlarda og'riqlar (katta mushaklarda va bo'g'implarda), bosh og'rishi belgilari aniqlandi. Bemorlar obyektiv tekshirilganda 79% xolatda periferik limfa tugunlarida palpato'r o'zgarishlar aniqlandi [4, 6, 7]. UTT tekshiruvi esa bemorlarning 90% qismida gepatomegaliya mavjud ekanini ko'rsatdi. Yana 92% bemorlarda surunkali xolesistit aniqlandi.

Orxoepididimitning uchrashi kasallikning o'tkir osti shaklida nisbatan yuqori bo'ldi. Umumiy xisobda 11.5% bemorda shu xolat uchradi. Tana xaroratining ko'tarilishi antibiotikoterapiyaning dastlabki xafsi-dayoq kamaydi yoki yo'qoldi. Subyektiv belgilari esa statsionar davo mobaynida nisbatan uzoq saqlanib goldi.

Umumiy qon taxlilida ko'zga ko'rinarli katta o'zgarishlar topilmadi. Umumiy peshob taxlilida mavjud patologiyaning kamayishi kuzatildi. Najas taxlili esa uzoq muddatli antibacterial davo ta'sirida zamburug'lar ko'payishini yana bir karra tasdiqladi. Qon bioximik taxlilida farqli bo'lgan o'zgarishlardan faqat C reaktiv oqsilining aniqlanishi bo'ldi. Davo ta'sirida ushbu ko'rsatkkich norma darajasiga qaytdi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari kasallikning 18-44 yosh-dagi qishloq aholisi o'ttasida keng tarqalishi ko'rstdi. Bemorlarning katta qismi alimentar yo'l orqali kasallanishi qishloq xududlarida pasterizatsiyaga amal qilishning juda past ekanini va aholi o'ttasida sanitar-oqartuv ishlari zarur ekanini ko'rsatadi.

Oila a'zolarida kasallik aniqlangan xamda tana xarorati ortishi bilan shikoyat qilgan va xolsizlik, ish-taxaning yo'qolishi, terlash, qaltirash, qo'l va oyoqlarda og'riqlar (katta mushaklarda va bo'g'implarda), bosh og'rishi kabi subyektiv belgilari mavjud bemorlarni Oilaviy poliklinika sharoitida brutsellyozga tekshirishni yo'lda qo'yish kasallikni erta aniqlashda katta imkon yaratadi.

O'tkir va o'tkir osti brutsellyoz bilan kasallangan bemorlar statsionar davolangandan keyin 42 (69%) tasining qonida DNK aniqlanmadи qolgan 19 (31%) ta qon namunasida DNK topildi. O'z. Res. SSV tomonidan tasdiqlangan amaliy qo'llanma asosida statsionar davo olgan bemorlarning 69% qismida klinik xamda laborator sog'ayishga erishildi.

### Adabiyotlar.

1. Al Shehhi N, et al. Human Brucellosis in the Emirate of Abu Dhabi, United Arab Emirates, 2010-2015. BMC Infect Dis 2016; 16(1): 558.
2. Aloufi AD et al. Trends of reported human cases of brucellosis, Kingdom of Saudi Arabia, 2004-2012. J Epidemiol Glob Health 2016; 6(1) 11-8.
3. Clinical features of 2041 human brucellosis cases in China // Shi Yujing, Hui Gao, G. Pappas, Q. Chen, Li Mei, Xu Jun, S. Lai, Q. Liao, W. Yang, Z. Yi, Z. Rouzi, H. Yu//PLoS One. - 2019 (Jan16). - Vol. 14, № 1. e0211102. doi: 10.1371/journal.pone.0211102.eCollection 2019.
4. Predictors of therapeutic failure among patients with acute brucellosis treated by dual therapy with doxycycline-rifampin /A.F. Alsaed Hasanain, M.A. El-Masry, A.A.H.Zaed, A.M.A. Nafee, R.A.H. Attia, S.M. Abdel-Aal // Trop Med Int Health. - 2018 (Nov 9). - doi: 10.1111/tmi.13179. [Epub ahead of print]
5. Kassari H et al. Epidemiological, Laboratory, diagnostic and public health aspects of human brucellosis in western Iran. Asian Pac J Trop Biomed 2013; 3(8): 589-94.
6. Khaled S.R., Maryam S., Mahmoud A. Epidemiological and clinical features of human brucellosis, Chron Dis J. Vol.8 No.1. 2020, 14-20.
7. Бруцеллез у взрослых, Ахмедов Д.Р., Тагирбекова А.Г., Магомедова С.А., Шестакова И.В., Национальное научное общество инфекционистов, Клин рек 2014, 71с.
8. Бруцеллоз. Современное состояние проблемы / под ред. Г.Г. Онищенко, А.Н. Куличенко. – Ставрополь: ООО «Губерния», 2019. – 336 с.
9. Бруцеллездан клиник амалий қўлланма т.ф.д. М.Шарапов таҳрири остида 2018, 216б.
10. Верховский О.А. Перспективы использования ИФА в диагностике бруцеллеза животных и человека в России/О.А. Верховский, С.Л. Кальнов, О.Д. Скляров//Бруцеллез – пограничная инфекция животных и человека, требующая общих усилий раз-

ных стран: матер. Международного Рабочего Совета, Серпухов, Московская обл., 2008. – Серпухов, 2008. - С. 9.

11. Инфекционные болезни: национальное руководство / Под ред. Н.Д. Ющука, Ю.Я. Венгерова. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009. — 1040 с.

12. Покровский В.И. и др. Инфекционные болезни и эпидемиология. Геотар-медиа, М., 2007, 834 с.

13. Эпидемическая опасность бруцеллеза в современных условиях В.Ю. Охапкина, Н.В. Пяткова, Д.Л. Павлов, А.А. Суслопаров, 2016

#### **BRUTSELLYOZNING O'TKIR VA O'TKIR OSTI SHAKLLARINING ETIOLOGIK TASHXISOTIDA PZR METODINI QO'LLASH NATIJALARI**

Axmedova M.D., Zaylobidinov B.Z., Anvarov J.A., Bobojonov Sh.J.

*Annotatsiya. Brutsellyoz kasalligi bundan qariyb 1.5 asr ilgari aniqlangan va o'r ganilayotgan bo'lishiga qara-*

*may dunyo xamjamiyatida xaligacha katta xavf sifatida qaraladi. Kasallik qo'zg'atuvchisining uy xayvonlarida mavjudligi kasallikning keng tarqaganlishiga imkon beradi. Rivojlanayotgan davlatlarda aholi tibbiy saviyasining yuqori emasligi va xom maxsulotlar iste'molining ko'pligi aholi o'rtasida kasallikning ko'payishi va asorataliga sababchi bo'ladi. Ushbu tadqiqot maqsadi xozirda keng qo'llanilayotgan PZR RealTime usulini qo'llash orqali qon namunalarida Brucella spp. ga tegishli genomning IS711 segmentini topish, shu orqali kasallikni erta aniqlash va tashxis qo'yishni takomillashtirish, davolashgacha va statsionar davolashdan keyin bemorlarda qo'zg'atuvchining mavjudligini aniqlash va qo'llanilayotgan davo choralarining samaradorligini baxolashdan iborat. Buning uchun RIEMYPKIATM klinikkasida 2020-2021 yillar davomida o'tkir (31) va o'tkir osti (30) brutsellyoz tashxisi qo'yilgan jami 61 bemor o'r ganildi. Tashxis serologik reaksiyalar natijalariga asoslangan xolda qo'yildi. PZR RealTime bilan moslik 88.5% xolatda uchradi. 11.5 % bemorlar qonida qo'zg'atuvchi DNK si aniqlanmadidi.*